

Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools.

Supervisor: Hojiyeva Zulfiya Oktamovna

PhD, dots. v. b.

Jalilova Dilshoda Ural Kizi

TDPU 5A 110903 named after Nizami -
Master of Education in Management

Annotation: Presidents to improve the educational activities of gifted students, as well as to attract qualified psychologists to educational institutions and continue the educational activities of gifted students. consideration of privatization. In addition to theoretical information on the above issues, this article also provides technical recommendations for monitoring the educational activities of gifted students of Presidential Schools.

Keywords: Presidential schools, gifted students, educational activities, psychologists, technological aspects, talent, teachers, selection of gifted students, psychological features.

Bizga psixologiyadan ma'lumki, iqtidorlilik shaxsning psixologik va fiziologik xususiyatlari asosida namoyon bo'ladi. Bu singari xususiyatlar shaxsning o'ziga xosligi va individual ekanini ifoda etadi. Individuallik esa o'z navbatida u yoki bu yo'naliishlardagi iqtidorning uchqun bo'lib chaqnashida eng yetakchi omil sanaladi. Mashhur rus psixologgi B. M. Teplovning ta'kidlashicha, «Psixologianing ixtiyoriy umumiyl qonuning ma'lum ko'rinishi har doim o'zida shaxsiylik omili, individuallik omilini qamrab oladi». Ayni shu jihatdan iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ularni aynan Prezident maktablariga jalb etishda psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini alohida inobatga olib ish ko'rmoq maqsadga muvofiq bo'ladi nazarimizda.

Pedagogika tarixiga nazar solgan holda aytadigan bo'lsak, pedagogik jarayonni tashkil etish aniq didaktik usullarni qo'llashda individuallikni hisobga olish zarur ekanligi ko'rsatadi. Buni o'z davrida buyuk pedagoglar K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy va yana boshqa olimlar alohida e'tirof etib o'tishgan.

Iqtidorli o'quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini chuqur o'rganish asosida ularni Prezident maktablariga jalb qilish ta'lim muassasasi faoliyatining samaradorligini oshiruvchi samarali yo'llardan biri bo'lish bilan birga tabaqlashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yilishiga imkon beradi. Zero, tengdoshlari orasidan alohida iqtidori bilan ajralib turadigan, tengqurlaridan farqli yoxud takrorlanmas iqtidorga ega o'quvchilarning tabaqlashtirilgan dasturlar asosida o'qitilishi ularga imkoniyatlari darajasidagi bilimlarni berilishini ta'minlaydi hamda bunday iqtidor sohiblarining qiziqishlarini yanada rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ayni damda esa bu ularning iqtidorlarini kuchliroq rivojlantiradi ham.

Iqtidorli o'quvchilarning kuchli xotira egasi bo'lishlari ahamiyatli sanaladi. Shu boisdan ham Prezident maktablariga tanlov asosida o'quvchilarni qabul qilish va o'qitish davrida ularning xotira kuchi qay darjada ekanini aniqlashga ham e'tibor bermoq joiz bo'ladi.

Iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ularni Prezident yoki ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga jalb etishda ularning quyidagi umumiyl xususiyatlarga ega ekanliklarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

1. Shaxs individualgining yorqin ko'zga tashlanishi;
2. Shaxsning faolligi va o'z-o'zini boshqara olishi;
3. Asab tizimining kuchli bo'lishi, jiddiylik va sovuqqonlik (sport, ilmiy, Texnik va til yo'naliishlarida);
4. Asab tizimining nisbatan kuchsiz bo'lishi va o'ta ta'sirchanlik (musiqa, san'at, amaliy san'at va xoreografiya yo'naliishlarida);

5. Asab tizimining labilligi va og'uvchanligi;
6. Yuqori darajada xotira kuchiga egalik.

Prezident maktablari faoliyatining samaradorligini oshirishda texnologik jihatlarni ham inobatga olish foydadan holi emas. Shuning barobarida aytish lozimki, bu jarayonning bir necha bosqichlarda tashkil etilishi muhim texnologik unsur sifatida gavdalanadi:

- 1- bosqich: iqtidorli o'quvchilarni tanlash;
- 2- bosqich: iqtidorli o'quvchilarni Prezident mакtablariga jalg etish;
- 3- bosqich: o'quvchilarining iqtidorini yanada shakllanishiga yordam beruvchi zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;
- 4- bosqich: o'quvchilar iqtidorini ularni turli musobaqa, ko'rik-tanlovlari va olimpiadalarga chorlash asosida yanada yaqqollashishiga ta'minot yaratish;
- 5- bosqich: o'quvchilar iqtidori darajasini doimiy ravishda malakali tahlil qilib borish;
- 6- bosqich: Prezident maktablariда ta'limga o'quvchilarining malakali mutaxassis va kadrlar bo'lib yetishishlarini tahlil etishga ko'mak beruvchi monitoringni yo'lga qo'yish.

Prezident maktablari faoliyati samaradorligini oshirishda ta'limga muassasasiga malakali psixologlarni jalg etish ham zarur. Binobarin, o'quvchilarining iqtidori darajasini uzlusiz ravishda, izchil o'rganib borish, erishilayotgan yutuqlar omillarini o'rinni baholash va yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarga sabab bo'lgan omillarni ham tahlil etish aynan maxsus bilim va tajribaga ega psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

O'z mutaxassisligi jihatidan malakaga ega bo'lgan psixologlarning Prezident maktablari faoliyat yuritishi o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning mo'tadil kechishiga, mavjud ziddiyatlarning oldini olish yoki unga barham berilishiga yordam beradi, albatta.

Prezident maktablari faoliyati bo'yicha monitoringning izga tushirilishi ham pedagog jamoaga samaradorlik, natijaviylik singari ko'rsatkichlarni aniqlab olish, zamonaviy ilg'or tajribalarini o'rgangan holda ta'limga tarbiya jarayoniga ijodiy yondoshuvni qaror toptirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, iqtidorli o'quvchilarni o'qitishga, ta'limga bilim berishga qaratilgan Prezident maktablari faoliyati samardorligini yuksaltirishda bu jarayonning muhim psixologik va texnologik jihatlarini nazardan chetda qoldirmaslik zarurdir. Samarali shakl, metod hamda vositalarning to'g'ri tanlanishi esa texnologik jarayonning ustuvor elementlaridan biri demakdir.

Foydalilanigan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Ahliddinov R. Maktab ichki nazorati - yutuqlar garovi // Xalq ta'limi j., 1996. 2-son.
2. Ahliddinov R. Maktab ta'luming ijtimoiy-pedagogik boshqaruvi // Xalq ta'limi j., 1998. 1-son.
3. Andreeva G.M. Актуальные проблемы социальной психологии — М.:Изд-во МГУ, 1998.
4. Anikeeva N.P. Jamodagi ruhiy muhit. — Т.: O'qituvchi, 1992.
5. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalar. — Т.: RTM, 2000.
6. Saidahmedov N. Pedagogikada yangicha fikrash. — Т.: Istiqbol, 2002.
7. Способности и склонности : комплексные исследования / Под ред. Э.А.Голубевой. — М.: Педагогика, 1989.